

# Kimyo sanoati va ta'lim integratsiyasi mustahkamlanmoqda

// 02.04.2026

<https://uzkimyosanoat.uz/oz/press/news/kimyo-sanoati-va-ta-lim-integratsiyasi-mustahkamlanmoqda>



Bugun "O'zkimyosanoat" AJ boshqaruvi raisi "Yangi O'zbekiston" universitetiga tashrif buyurib, oliy ta'lim muassasasi rahbariyati bilan muhim uchrashuv o'tkazdi.

Unda ikki tomonlama hamkorlikni yanada mustahkamlash va yangi qo'shma loyihalarni amalga oshirish istiqbollari muhokama qilindi. Muloqot davomida ta'lim dargohi faoliyati, uning nafaqat O'zbekiston, balki butun Markaziy Osiyo miqyosidagi nufuzi alohida ta'kidlandi.



Shuningdek, dunyoning yetakchi universitetlari bilan yo'lga qo'yilgan hamkorlik aloqalari haqida batafsil ma'lumot berildi.

Xususan, Germaniyaning Technical University of Munich, Buyuk Britaniyaning Cranfield University, Gonkong va Pekin universitetlari bilan amalga oshirilayotgan qo'shma ta'lim dasturlari yuqori malakali kadrlar tayyorlashda muhim ahamiyat kasb etayotgani qayd etildi.



Ta'kidlash joizki, "O'zkimyosanoat" AJ va "Yangi O'zbekiston" universiteti o'rtasida kimyo sohasida kadrlar tayyorlash hamda ilm-fanni rivojlantirishga qaratilgan "yo'l xaritasi" imzolangan. Uchrashuvda ushbu hujjatda belgilangan vazifalar ijrosi ham alohida ko'rib chiqildi. Shu bilan birga, oliygohning xorijiy professor-o'qituvchilari tomonidan ishlab chiqarish korxonalarini uchun ekologik toza yechimlar yuzasidan taqdimotlar o'tkazildi.



Tashrif doirasida universitet huzurida tashkil etilgan sun'iy intellekt klasteri, shuningdek, materialshunoslik, lazer va nanotexnologiya laboratoriyalari faoliyati bilan yaqindan tanishildi.

Bu kabi hamkorlik ilm va sanoat uyg'unligini ta'minlash, mamlakatning innovatsion rivojlanishda muhim turtki bo'lishi ta'kidlandi.



